



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;
Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;
Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;
Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;
Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori;
Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;
Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Ostonokulov Azamat Abdurakimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;
Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;
G'aybullayev Otobek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;
Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;
Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;
Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;
Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Salaxutdinova Musharrafa Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;
Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;
Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;
Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.;
Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;
Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;
Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Saydullayev Shaxzod Alihanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);
Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;
Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;
Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasilisa Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich -siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 9-son (sentyabr, 2025). - 198 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li</i>	
THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA: THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS	9-13
<i>Xurramov Xamid Bobokul o'g'li</i>	
AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN?	14-18
<i>Zikirova Maxprat Soliyevna</i>	
HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI	19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА	26-38
<i>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</i>	
ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI	39-46
<i>Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna</i>	
OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES IN TEXTILE ENTERPRISES	47-52
<i>Shixiyev Raxim Muhammedovich</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	53-60
<i>Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna</i>	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI	61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Navro'zova Gulchehra Nigmatovna</i>	
BAHOUDDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI	67-70
<i>Yuldasheva Diloram Yuldashevna</i>	
O'ZBEKİSTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI	71-74
<i>Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich</i>	
ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI	75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Ayimbetova Zamira</i>	
BADIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH VA TASNIFFLASHNING NAZARIY ASOSLARI	81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i>	
ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLARI	88-92
<i>Petrosyanç Эрнест</i>	
СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i>	
NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i>	
ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Firuza Muxitdinova</i>	
JAMIyat BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILIY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i>	
NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i>	
IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i>	
FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIYY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i>	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i>	
ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNING QONUN İJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i>	
JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i>	
NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i>	
VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO
TA’SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025

Accepted: 30 August 2025

Published: 15 Ceptemper 2025

Article / Original Paper

TRENDS IN STRENGTHENING PATRIOTISM IN THE MILITARY SPHERE AND THEIR NATIONAL CHARACTERISTICS

Zikirova Maxprat Soliyevna

independent researcher

Abstract. The article analyzes modern trends in strengthening patriotism in the military sphere. The author considers the improvement of legislative and legal foundations, military-patriotic education based on human capital within the "New Uzbekistan" paradigm, the unity of education, technology and spirituality, gender inclusiveness, open dialogue between the army and society, as well as the humanistic orientation of the military-social infrastructure as the main directions. The scientific analysis relies on the ideas of J. Habermas, M. Castells, E. Durkheim, T. Parsons and A. Maslow. National characteristics are examined in correlation with global trends.

Keywords: patriotism, military service, national security, human capital, spiritual environment, gender equality, infrastructure, dialogue, education.

HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI

Zikirova Maxprat Soliyevna

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada harbiy sohada vatanparvarlikni kuchaytirishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Muallif qonunchilik va huquqiy asoslarni takomillashtirish, "Yangi O'zbekiston" paradigmasi doirasida inson kapitaliga suyangan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ta'lim, texnika va ma'nnaviyat uyg'unligi, gender nuqtai nazardan inklyuzivlik, armiya va jamoatchilik o'rtaSIDA ochiq muloqot hamda harbiy-iijtimoiy infratuzilmaning insonparvar yo'nalishini harbiy sohadagi asosiy yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqadi. Ilmiy tahlil J. Habermas, M. Kastels, E. Dyurkgeym, T. Parsons va A. Maslou kabi nazariy qarashlarga tayanilgan. Milliy xususiyatlar zamonaviy tendensiyalar bilan uyg'un holda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, harbiy xizmat, milliy xavfsizlik, inson kapitali, ma'nnaviy muhit, gender tenglik, infratuzilma, muloqot, ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N03>

Kirish. Harbiy sohada vatanparvarlik masalasi jamiyat taraqqiyoti va davlat mustaqilligini ta'minlashning eng muhim ma'nnaviy-iijtimoiy ustuni hisoblanadi. Milliy xavfsizlik, davlat suvereniteti va ijtimoiy barqarorlik avvalo armiyaning ma'nnaviy qudratiga, uni tashkil etuvchi har bir xizmatchining ong va qalbidagi vatanga sadoqat tuyg'usiga bog'liq. Shu boisdan, vatanparvarlik masalasi nafaqat siyosiy va harbiy sohaning, balki sotsiologiya, falsafa, psixologiya va ma'nnaviyatshunoslik fanlarining ham tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Jamiyatning barqarorligida milliy g'oya va ma'nnaviy qadriyatlarning o'rni haqida E. Dyurkgeym ta'kidlaganidek: "*Ijtimoiy tartibning eng muhim asosi – bu avloddan avlodga o'tadigan qadriyatlardir*" [15]. Harbiy sohada ana shu qadriyatlар vatanparvarlik tuyg'usi orqali namoyon bo'ladi.

Zamonaviy global jarayonlar harbiy sohada vatanparvarlikni mustahkamlashning yangi tendensiyalarini shakllantirmoqda. Jumladan, huquqiy asoslarni yangilash, inson kapitaliga suyangan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ta'lim va ma'naviyat uyg'unligi, gender inklyuzivligi, armiya-jamoatchilik muloqoti hamda infratuzilmani insonparvar yo'nalishda rivojlantirish O'zbekiston sharoitida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Maqolaning maqsadi – harbiy sohada vatanparvarlikni kuchaytirish tendensiyalarini sotsiologik va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning milliy xususiyatlarini ochib berish va ilmiy asoslangan xulosalarga kelish.

1-tendensiya. Strategik-huquqiy asoslarni yangilash

Harbiy sohada vatanparvarlikni kuchaytirish avvalo huquqiy va strategik asoslarni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yilgi tahrirda[1]:

- ✓ **52-moddada:** "*O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — har bir fuqaroning burchi*" deb belgilangan.
- ✓ **53-moddada:** "*Vatan himoyasi fuqarolarning sharaflı burchi va muqaddas vazifasidir*" deyiladi.

Bu normalardan ko'rinib turibdiki, vatanparvarlik nafaqat ma'naviy qadriyat, balki huquqiy burch sifatida ham Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. Shu bois harbiy sohada vatanparvarlikni kuchaytirish tendensiyalari to'g'ridan-to'g'ri Konstitutsiya talablari bilan uyg'un holda amalga oshiriladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda strategik-huquqiy asoslarni yangilash bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Jumladan:

1. "**O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinası**" (2018-yil) qabul qilinib, milliy armiyaning vazifalari aniq belgilab berildi[2];
2. "**Milliy xavfsizlik konsepsiysi**" ishlab chiqilib, tashqi va ichki xavfsizlik yo'nalishlari hamda jamiyatning ma'naviy himoyasi masalalari qamrab olindi;
3. harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi, ijtimoiy himoyasi va oilaviy sharoitlarini ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi.

Shu orqali harbiy xizmatchilarda davlat va xalq oldidagi mas'uliyat tuyg'usi huquqiy jihatdan mustahkamlanmoqda. Masalan, so'nggi yillarda "Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish" dasturlari amalga oshirilishi vatanparvarlik ruhini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Milliy xususiyat sifatida qayd etish lozimki, O'zbekistonda huquqiy asoslarni yangilash milliy urf-odatlar va qadriyatlar bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda. Bu esa armiyanı nafaqat texnik jihatdan, balki ma'naviy jihatdan ham zamonaviy talablarga moslashtirish imkonini bermoqda[6].

Bu jihatda J. Habermasning qonun va legitimlik haqidagi fikrlari xam muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning ta'kidlashicha: "*Qonunlarning haqiqiy qudrati ularning ma'naviy legitimligidadir*" [16]. Demak, armiyada vatanparvarlik ruhini mustahkamlash uchun huquqiy baza nafaqat texnik jihatdan mukammal, balki ma'naviy jihatdan ham adolatli va xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak.

Qisqa qilib aytganda, strategik-huquqiy asoslarni yangilash tendensiyasi vatanparvarlikning huquqiy poydevorini mustahkamlaydi, armiya va jamiyat o'rtasidagi ishonchni kuchaytiradi.

2-tendensiya. “Yangi O’zbekiston” paradigmasi doirasida inson kapitaliga suyangan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi

Zamonaviy sotsiologiyada inson kapitali tushunchasi nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy va ma’naviy jarayonlarning asosiy omili sifatida qaraladi. M. Kastels ta’kidlaganidek: “*Axborot jamiyatida inson kapitali eng muhim resursdir*” [13]. Shu nuqtai nazardan, harbiy sohada vatanparvarlikni mustahkamlash inson kapitaliga, ya’ni shaxsning bilim, malaka, axloqiy qiyofa va ma’naviy salohiyatiga bog’liq.

Harbiy xizmatchi nafaqat harbiy-texnikaviy bilimga, balki yuksak ma’naviy-axloqiy salohiyatga ham ega bo’lishi zarur. Chunki zamonaviy armiyaning vazifasi faqat himoya emas, balki jamiyatda ma’naviy tarbiya, milliy g’oyani mustahkamlash va yoshlarni vatanparvarlik ruhidha tarbiyalashdan iborat. Shu jihatdan “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi” (2022–2026-yy.) inson kapitalini davlat rivojlanishining eng asosiy ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Ushbu strategik hujjatda ta’lim, ilm-fan va ma’naviyat uyg’unligini ta’minalash, har bir fuqaroning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish vazifasi qo’yilgan. Bu talablar harbiy sohada ham to’liq tatbiq etilmoqda.

Harbiy ta’lim tizimi: O’zbekistonda harbiy akademiyalar, litseylar va oliy harbiy o’quv yurtlarida yangi o’quv dasturlari joriy qilinmoqda. Ularda fan-texnika bilimlari bilan birga, milliy g’oya va ma’naviy tarbiya masalalariga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

Kadrlar tayyorlash: Armiyada shaxsiy rivojlanishga yo’naltirilgan o’quv dasturlari orqali ofitser va serjantlarning ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarligi kuchaytirilmoqda.

Yoshlar bilan ishlash: Harbiy xizmatchilar maktablar va kollejlarda vatanparvarlik darslarida ishtirok etib, yosh avlodga shaxsiy namuna ko’rsatmoqda.

O’zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish milliy g’oya bilan chambarchas bog’langan. Bu jarayonda “Ma’naviyat va ma’rifat markazi”, “Yoshlar ittifoqi” va turli jamoat tashkilotlari hamkorlikda armiyaning ma’naviy qiyofasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu orqali harbiy xizmatchi nafaqat kasbiy mutaxassis, balki ma’naviy targ’ibotchi sifatida jamiyatda muhim rol o’ynaydi.

“Yangi O’zbekiston” paradigmasi inson kapitalini armiyaning asosiy qudrati sifatida belgilaydi. Harbiy xizmatchilarda bilim va ma’naviyat uyg’unligini ta’minalash orqali vatanparvarlik tuyg’usi mustahkamlanadi, milliy armiyaning ma’naviy va intellektual qiyofasi zamon talablariga javob beradigan darajaga ko’tariladi.

3-tendensiya. Ta’lim, texnika va ma’naviyat uyg’unligi

Harbiy sohada vatanparvarlikni mustahkamlashda ta’lim, texnika va ma’naviyatning uyg’unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Armiya nafaqat jismoniy kuch va texnikaga, balki ma’naviy qudrat va intellektual salohiyatga tayanadi. Zamonaviy davrda harbiy xizmatchilardan yuqori darajada bilimli, texnikadan foydalana oladigan va shu bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarga sodiq shaxs bo’lish talab etiladi.

E. Dyurkgeym ta’kidlaganidek: “*Ijtimoiy qadriyatlar avloddan-avlodga uzluksiz o’tishi jamiyat barqarorligini ta’minalaydi*” [15]. Ushbu nazariya harbiy sohada ham o’z ifodasini topadi. Agar ta’lim va ma’naviyat uyg’un holda berilmasa, armiyadagi xizmat faqat texnik amallar bilan cheklanib qoladi. Shuning uchun zamonaviy armiyada harbiy bilimlar ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg’unlashtirilishi zarur.

O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi harbiy fakultet va harbiy litseylarda o’quv dasturlari

zamonaviy texnika va milliy g'oya uyg'unligi asosida shakllantirilmoqda. Masalan, kadrlar nafaqat harbiy-texnika sohasida bilim oladi, balki ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha ham chuqur tayyorgarlikdan o'tadi.

Axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik sohasida harbiy kadrlarni tayyorlash, ularga dronlar, sun'iy intellekt va raqamli kommunikatsiyalar bilan ishslash ko'nikmalarini berish. Bu jarayonda milliy g'oya va ma'naviy tarbiyaning integratsiya qilinishi harbiy xizmatchining shaxsiy mas'uliyatini kuchaytiradi.

Armiyada muntazam ravishda ma'naviyat va ma'rifat darslari, tarixiy shaxslar merosi haqida ma'ruzalar, vatanparvarlik mavzusida uchrashuvlar tashkil etilmoqda. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayoni milliy madaniy meros bilan uyg'un holda olib boriladi. Masalan, Alisher Navoiy, Jaloliddin Manguberdi, Temuriylar davri tarixidan namuna keltirish orqali harbiy xizmatchilarda milliy g'urur va ma'naviy barqarorlik mustahkamlanadi. Bunda texnika va ilm-fan orqali zamonaviy bilim berilsa, ma'naviyat orqali milliy asos mustahkamlanadi.

Ta'lism, texnika va ma'naviyat uyg'unligi — harbiy sohada vatanparvarlikni kuchaytirishning eng muhim tendensiyalaridan biridir. Bu uyg'unlik harbiy xizmatchini zamonaviy bilimga ega, texnikani chuqur o'rgangan va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalaydi. Natijada armiya nafaqat harbiy qudrat, balki ma'naviy-ma'rifiy kuch manbai sifatida jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlaydi.

4-tendensiya. Gender nuqtai nazardan inklyuzivlik

Harbiy sohada vatanparvarlikni mustahkamlashning muhim yo'nalishlaridan biri — gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlarning armiyadagi o'rnini kuchaytirishdir. Zamonaviy jamiyatda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki kengayib borayotgani kabi, harbiy sohada ham ularning ishtiroki alohida ahamiyat kasb etmoqda.

T. Parsonsning ijtimoiy rollar nazariyasida ta'kidlanganidek: "*Jamiyat barqarorligi turli ijtimoiy rollarning uyg'un taqsimlanishiga bog'liqdir*" [19]. Shu nuqtai nazardan, armiyada erkak va ayol xizmatchilarning o'zaro uyg'un hamkorligi jamoaviy barqarorlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Agar gender tengligi ta'minlanmasa, bu armiyadagi ijtimoiy tizimda muvozanatsizlikka olib kelishi mumkin.

Qonunchilik asoslari: O'zbekiston Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni harbiy sohada ham amal qilmoqda[3]. Unga ko'ra, xotin-qizlar armiyada xizmat qilish, ofitser lavozimlariga tayyorlanish va rahbarlik vazifalarini bajarish huquqiga egadir.

Harbiy ta'lismuassasalarida xotin-qizlar: Oliy harbiy ta'lismuassasalarida xotin-qizlar uchun maxsus kvotalar ajratilishi ularning armiyadagi ishtiroki kengayayotganini ko'rsatadi. Bugungi kunda ko'plab ayollar serjant, ofitser va hatto yuksak rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.

Amaliyotdagi natijalar: Xotin-qiz harbiy xizmatchilar nafaqat kasbiy mas'uliyatni bajaradi, balki jamoatchilikda ma'naviy targ'ibotchi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ular o'zining oilaviy va ijtimoiy faoliyati orqali ham yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishga hissa qo'shmoqda.

O'zbekistonda xotin-qizlarning harbiy sohadagi ishtiroki milliy urf-odatlar va an'analar bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda. Milliy madaniyatimizda ayolga hurmat va e'tibor alohida o'rin tutadi. Shu asosda xotin-qiz harbiy xizmatchilar nafaqat armiyaning a'zosi, balki oila va jamiyatda ma'naviy-axloqiy ustun sifatida ko'riladi.

Gender nuqtai nazardan inklyuzivlik harbiy sohada vatanparvarlikni kuchaytirishning muhim omili hisoblanadi. Xotin-qizlarning armiyadagi ishtiroki armiyaning ma'naviy qiyofasini boyitadi, jamoaviy birlikni mustahkamlaydi va milliy armiyaning zamonaviy talablarga mos rivojlanishiga xizmat qiladi.

Harbiy sohada gender nuqtai nazardan inklyuzivlik tendensiyasining asosiy yo'nalishlari

Yo'nalishlar	Mazmun va ahamiyat	Amaliyot misollari	Milliy xususiyat
Qonunchilik asoslari	Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash	2019-yil "Gender tenglik to'g'risida"gi qonun	Milliy qadriyatlarda ayolga hurmatning ustuvorligi
Harbiy ta'lim	Xotin-qizlarni ofitser va serjant lavozimlariga tayyorlash	Oliy harbiy o'quv yurtlarida maxsus kvotalar	Urf-odatlarga uyg'un holda ayollarning ishtiroki
Kasbiy faoliyat	Harbiy lavozimlarda mas'uliyat bilan xizmat qilish	Ofitser va rahbar lavozimlardagi ayollar	Jamoaviy hamjihatlik va birlikka hissa
Ma'naviy-ijtimoiy ta'sir	Yoshlarda vatanparvarlik va ma'naviy tarbiyani kuchaytirish	Xotin-qiz harbiy xizmatchilarning targ'ibot ishlari	Ayol — oila va jamiyatda ma'naviy ustun sifatida

5-tendensiya. Armiya va jamoatchilik o'rtaсидаги очиқ мuloqot

Zamonaviy jamiyatda armiyaning qudrati faqat harbiy texnika yoki soni bilan emas, balki uning jamoatchilik bilan qay darajada очиқ muloqot olib borishi bilan ham o'lchanadi. Jamoatchilik armiyaning maqsad va vazifalarini anglasa, unga ishonsa, armiyaning ma'naviy va ijtimoiy quvvati oshadi. Shu bois harbiy sohada vatanparvarlikni kuchaytirishning muhim tendensiyalardan biri — очиқ muloqotni ta'minlashdir.

Yu. Habermasning "Muloqot nazariyasi"ga ko'ra: "*Jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlik fuqarolarning очиқ muloqot orqali o'zaro anglashuviga bog'liq*" [16]. Shu nuqtai nazardan armiya va jamoatchilik o'rtaсидаги очиқ muloqot — milliy xavfsizlikning ma'naviy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Agar armiya fuqarolardan uzoqlashsa, ishonch pasayadi va jamoaviy hamjihatlik zaiflashadi.

"Xalq bilan muloqot" konsepsiysi: O'zbekistonda 2017-yildan boshlab davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida joriy etildi. Bu konsepsiya armiya va jamoatchilik o'rtaсидаги очиқlikni ta'minlashda ham katta ahamiyat kasb etdi.

Ochiq eshiklar kuni — Harbiy qismlarda muntazam ravishda очиқ eshiklar kunlari tashkil etilib, fuqarolar armiya hayoti bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu tadbirlar yoshlarda armiyaga ishonch va hurmat tuyg'usini kuchaytiradi.

ОАВ ва интернет - Televideniye, internet portallari va ijtimoiy tarmoqlar orqali armiya hayotini yoritish keng yo'lga qo'yilgan. Xususan, harbiy xizmatchilarning shaxsiy misollari, yurt himoyasi yo'lidagi fidoyiligi keng targ'ib etilmoqda.

O'zbekistonda armiya xalqning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shu bois "Xalq va armiya — bir tan-u bir jon" shiori milliy xususiyat sifatida shakllangan. Bu g'oya очиқ muloqot orqali amaliy kuchga aylanadi. Harbiy xizmatchi jamoatchilikda nafaqat xizmatchi, balki ma'naviy tarbiyachi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Armiya va jamoatchilik o'rtasida ochiq muloqot — vatanparvarlikni kuchaytirishning muhim tendensiyasi hisoblanadi. Bu orqali armiya xalqqa yaqin bo'ladi, jamoaviy ishonch va hamjihatlik mustahkamlanadi, harbiy xizmatchilarning ma'naviy qiyofasi yanada yuksaladi.

6-tendensiya. Harbiy-ijtimoiy infratuzilmaning insonparvar yo'nalishi

Zamonaviy armiyaning qudrati uning texnikasi yoki qo'shin soniga emas, balki xizmatchilarning ma'naviy ruhi va ijtimoiy himoya darajasiga ham bog'liq. Shu bois harbiy sohada vatanparvarlikni mustahkamlashning muhim tendensiyalaridan biri — harbiy-ijtimoiy infratuzilmani insonparvar yo'nalishda rivojlantirish hisoblanadi.

A. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasiga nazariyasiga ko'ra: "*Insonning yuksak ma'naviy maqsadlarga intilishi uchun uning asosiy turmush ehtiyojlar qondirilishi zarur*" [18]. Harbiy xizmatchi o'z oilasining xavfsizligi, uy-joyi, sog'lig'i va farzandlari ta'limi ta'minlangan holda yurt himoyasida yanada fidoyi bo'ladi.

O'zbekistonda harbiy xizmatchilar va ularning oilalari uchun uy-joy, tibbiy xizmat va ta'lim sohasida imtiyozlar joriy etilgan. Masalan, xizmat uylari qurilishi va ipoteka dasturlari orqali uy-joy masalasi yechilmoxda. Harbiy gospitallar va maxsus klinikalar orqali xizmatchilar va ularning oilalari uchun yuqori darajada tibbiy xizmat ko'rsatilmoxda. Harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun maxsus maktablar va ta'lim dasturlari tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, harbiy shaharchalarda madaniy-ma'rifiy tadbirlar yo'lga qo'yilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, harbiy sohada vatanparvarlikni kuchaytirish milliy xavfsizlik va ma'naviy barqarorlikning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik nafaqat ma'naviy tushuncha, balki Konstitutsiya va qonunlarda huquqiy burch sifatida mustahkamlangani (52–53-moddalar) uning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini yanada oshiradi.

Tadqiqotdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish va mustahkamlashning asosiy tendensiyalari strategik-huquqiy asoslarni yangilash, inson kapitaliga suyangan tarbiya, ta'lim-texnika-ma'naviyat uyg'unligi, gender inklyuzivlik, armiya-jamoatchilik muloqoti hamda harbiy-ijtimoiy infratuzilmani insonparvar yo'nalishda rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu tendensiyalar milliy xususiyatlar bilan uyg'un holda amalga oshirilganda, armiyaning ma'naviy qiyofasi yuksaladi, jamiyatda ijtimoiy birlik va milliy g'urur mustahkamlanadi.

Shu asosda quyidagi **takliflarni** ilgari surish mumkin:

birinchidan, qonunchilik yo'nalishida vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq davlat dasturlarini qonunchilik darajasida yanada takomillashtirish zarur;

ikkinchidan, maorif va ta'lim sohasida harbiy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik mavzusida maxsus fanlar va interfaol dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, ma'naviy tarbiya sohasida armiyada ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni, milliy qahramonlar hayoti va jasoratiga bag'ishlangan targ'ibot ishlarini kengaytirish lozim;

to'rtinchidan, gender siyosatida harbiy sohada xotin-qizlarning munosib faoliyati uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilash talab etiladi;

beshinchidan, jamoatchilik bilan hamkorlikda armiya va aholi o'rtasida ochiq muloqot maydonlarini, turli forum va ko'ngillilar harakatini yo'lga qo'yish zarur;

oltinchidan, infratuzilmaviy yo'nalishda harbiy xizmatchilar va ularning oilalari uchun uy-joy, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasida davlat kafolatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – 56 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа доктринаси тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: Адлия вазирлиги нашри, 2017. – 32 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Гендер тенглик тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: Адлия вазирлиги нашри, 2019. – 24 б.
4. Мирзиёев, Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 460 б.
5. Мирзиёев, Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Т.: Ўзбекистон, 2020. – 384 б.
6. Абдуллаева, Н. Ҳарбий социология асослари. – Т.: Академия, 2018. – 210 б.
7. Каримов, И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
8. Маматов, Ш. Миллий ғоя ва миллий хавфсизлик. – Т.: Фан, 2014. – 204 б.
9. Назаров, Қ. Маънавиятшунослик. – Т.: Маънавият, 2015. – 312 б.
10. Сафаров, А. Ҳарбий хизматчилар маънавияти ва жамият. – Т.: Академия, 2016. – 198 б.
11. Юлдашев, Қ. Ватанпарварлик ва маънавият. – Т.: Маънавият, 2017. – 156 б.
12. Эргашев, И. Миллий ғоя ва ҳарбий хизмат. – Т.: Академнашр, 2019. – 220 б.
13. Bauman, Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p.
14. Castells, M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996. – 556 p.
15. Durkheim, É. Moral Education. – New York: Free Press, 1961. – 320 p.
16. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. – Boston: Beacon Press, 1984. – 465 p.
17. Huntington, S. Political Order in Changing Societies. – New Haven: Yale University Press, 1968. – 488 p.
18. Maslow, A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954. – 369 p.
19. Parsons, T. The Social System. – Glencoe: Free Press, 1951. – 560 p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).